

Tadbirkorlik Faoliyatini Davlat Tomonidan Qo‘llab-Quvvatlanishi Va Sohaga Mintaqalar Miqyosida Investitsiya Jalb Qilish Samaradorligi

Ikromov Elyor Ibodulloyevich¹

Annotatsiya: ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning o‘zgarishlarga tez moslashuvchanligi mamlakatimiz ichki bozorini iste‘mol tovarlari bilan to‘ldirish, xizmat ko‘rsatishning yangi va zamonaviy turlarini kengaytirish, eksport salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhiti yaratilgani asosiy omil bo‘lmoqda. Investitsiya jarayonlarini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida yildan yilga investitsiya hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda. makroiqtisodiyotda investitsiyalar ishlab chiqarish hajmini oshirish va istiqbolda mamlakat farovonligini ta‘minlashni ko‘zda tutsa, mikroiqtisodiyotda investitsiyalar ishlab chiqarish va biznesni kengaytirish va rivojlantirish asosi sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ishlab chiqarish, investitsiya.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘shishini ta‘minlovchi asosiy bo‘g‘in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Respublikamizda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqarorligini ta‘minlash va uni qo‘llab-quvvatlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri qilib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o‘rinlari yaratib, nafaqat o‘zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo‘lishi shart. Kerak bo‘lsa, xorijdagi yetakchi kompaniya va tashkilotlarda tajriba orttirishi, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilishi uchun ularga har tomonlama imkoniyat tug‘dirib berishimiz lozim”.

2018-yil 5-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 3697-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, o‘tkazilgan tahlil natijalari mamlakatda faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga to‘sqinlik qiluvchi, jumladan, quyidagi qator tizimli muammolar mavjudligidan dalolat beradi:

birinchidan, hududlarning mavjud resurs bazasi va salohiyatini hisobga olgan holda ilg‘or va zamonaviy innovatsion ishlanmalar, texnologik loyihalar-startaplar va innovatsiyalar bozorini tizimli tahlil qilish yo‘lga qo‘yilmagan;

ikkinchidan, innovatsion loyihalar-startaplarga investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish sohasiga innovatsiyalarni faol joriy qiluvchi iqtidorli tadbirkorlar faoliyatiga ko‘maklashish va muvofiqlashtirish ishlari lozim darajada amalga oshirilmayapti;

¹ Osiyo xalqaro universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida o‘qituvchisi



uchinchidan, innovatsion rivojlanish sohasida, ayniqsa, joylarda ishbilarmonlik muhiti past darajada, shuningdek, innovatsion va muvaffaqiyatli texnologik loyihalar-startaplarni ishlab chiqish va ilgari surish bo'yicha zarur ko'nikmalarga ega tadbirkorlarning yetishmovchiligi saqlanib qolmoqda;

to'rtinchidan, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarning ma'lumotlar bazasi mavjud emas, yangi resurslarni yaratish va tajribani biznes-tuzilmalarga o'tkazish amaliyoti rivojlanmasdan qolmoqda;

beshinchidan, innovatsion ishlanmalar bozorini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari sust darajada ishlab chiqilgan, innovatsion g'oyalardan samarali foydalanishni muvofiqlashtirish yo'lga qo'yilmagan, innovatsion ishlanmalarning sifati esa bozor talablariga javob bermaydi;

oltinchidan, innovatsion ishlanmalar, texnologik loyihalar-startaplar sohasiga texnika oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari va iqtidorli yoshlarni jalb etishga, shuningdek, biznes-inkubatorlarni yaratishga lozim darajada e'tibor qaratilmayapti;

yettinchidan, aholi o'rtasida innovatsion tadbirkorlikni ommalashtirish ishlari samarali olib borilmayapti, innovatsion mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishga va ilgari surishga jalb qilishda texnik va psixologik to'siqlar saqlanib qolmoqda.

2017-2021 yillarda tadbirkorlik sub'ektlarini muhandisdik-kommunikatsiya tarmoqlariga tayyor holda ulash tizimini takomillashtirish, ularni xom ashyo va materiallar bilan ta'minlashni yuqori darajaga ko'tarish, yakka tartibdagi tadbirkorlikning rivojlanishini yanada qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarda islohotlar amalga oshirish belgilab olindi.

Yalpi ichki mahsulotning 80 foizi va mehnatga layoqatli aholining kamida 70 foizi iqtisodiyotning tadbirkorlik sektori ulushiga to'g'ri keladigan, yuksak rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning bu jabhada yuz yillar davomida to'plangan boy tajribasini o'rganish o'ta muhim. O'zbekistonda masalaga shu jihatdan qaralib, mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilgani mustabid, rejali-taqsimot tizimidan qolgan o'ta o'tkir muammolarni hal etishda eng muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

20 yil avval O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik deyarli yo'q edi, bugun esa barcha xo'jalik sub'ektlarining 90 foizdan ortig'ini tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etadi. Hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning 54 foizi, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 22 foizi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 98 foizi aynan shu soha hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekistonda tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilashning omil va sabablari quyidagilardan iborat.

Birinchidan, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning muhim tarkibini tashkil qiluvchi tarmoq bo'lgan tadbirkorlik ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi.

U nafaqat iqtisodiyotdagi ma'lum bir bo'shliqlarni to'ldiradi, balki uni diversifikatsiya qilish va barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni ta'minlashda o'ta muhim rol o'ynaydi.

Agar 2018-2022 yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida 5,2 milliondan ortiq yangi ish o'rni tashkil etilgan bo'lsa, ularning 62 foizdan ortig'i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri keldi. Buning natijasida hozirgi vaqtda mamlakatimizda ish bilan band bo'lgan jami aholining 76 foizdan ko'prog'i ushbu sohada mehnat qilmoqda.

Ikkinchidan, tuzilishiga ko'ra ixcham, qarorlar qabul qilishda tezkor va harakatchan, yangi tartib-qoidalarni qisqa muddatda o'zlashtiradigan tadbirkorlik jahon va mintaqalar bozorlaridagi talab va kon'yunktura o'zgarishlariga ancha tez moslashadi.

Uchinchidan, tadbirkorlikni tashkil qilish va yuritish katta xarajat hamda kapital qo'yilmalarni talab etmaydi. Bu esa ishlab chiqarishni tez va oson modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik qayta jihozlash, yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish, ularning nomenklaturasini muntazam yangilab borish va raqobatdoshligini ta'minlash imkonini beradi.



To'rtinchidan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining tahdid va salbiy oqibatlariga yirik korxonalariga nisbatan ushbu sohaning bardosh bera olish qobiliyati ancha yuqori.

Beshinchidan, kichik tadbirkorlik nafaqat daromad manbai, balki odamlarning ijodiy va intellektual qobiliyatini ro'yobga chiqarish vositasi hamdir. Mazkur soha har bir kishiga o'z iste'dodi va imkoniyatlarini namoyon etish uchun zamin yaratmoqda, shu tariqa tashabbuskor, omilkor, mustaqil faoliyat yurita oladigan, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga qodir insonlar toifasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Aynan shu sohani rivojlantirish hisobidan jamiyatdagi ijtimoiy siyosiy va sosial-iqtisodiy barqarorlikdan manfaatdor bo'lgan, mamlakatimizni taraqqiyot va demokratik islohotlar yo'lidan rivojlantirishda faol kuch bo'lib maydonga chiqayotgan ijtimoiy qatlam shakllanmoqda.

Soha rivoji uchun mustahkam qonunchilik va huquqiy baza shakllantirilgan va muntazam takomillashtirib borilib, biznes uchun imtiyoz va preferensiyalar berish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash hamda modernizatsiya qilish masalalarida davlat tomonidan tizimli ravishda yordam ko'rsatilmoqda.

O'tgan 2022 yilda 592,4 dan ziyod yangi korxonalar, birinchi navbatda, kichik biznes sub'ektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Tashqi savdo balansidagi ijobiy saldo 210,6 million dollarni tashkil qildi, mamlakatimizning oltin-valyuta zaxiralari 2 milliard 100 million dollarga ko'paydi.

Ayniqsa, sanoatning yengil, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlarida ishchilarning eng ko'p soni ilgari 100 kishidan 200 kishigacha oshirilgani tadbirkorlikni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlar tizimidagi muhim qaror bo'ldi.

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlariga 9 trillion so'mdan ortiq yoki 2018 yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p, shu jumladan, 2 trillion so'mga yaqin miqdordagi mikrokreditlar ajratildi. Bu o'tgan yilga qaraganda 39 foiz ko'pdir. So'nggi besh yilda tadbirkorlikni kreditlash hajmi qariyb 5 barobar ko'paydi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2022 yilda 269,9 trln. so'm investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, 2021 yilga nisbatan 100,9 % ni tashkil etdi. Bunda 2022 yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning 59,1 %i yoki 159,6 trln. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 40,9 % yoki 110,3 trln. so'm moliyalash hisobiga to'g'ri keldi.

Tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati, afzalliklari va ustuvorliklarida quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- nisbatan kam mablag sarflagan holda, yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilib, aholi bandlik muammosini barham topishiga, turmush tarzini yaxshilanishiga hamda aholi daromadlarini oshishiga olib keladi;
- moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini samarali taqsimlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu, o'z navbatida, real va moliya sektorlari mutanosibligini ta'minlaydi hamda iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratadi;
- jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni kafolatlovchi tadbirkorlar katlamini shakllantirib, iqtisodiy jihatdan faol bo'lgan aholi ulushini ko'paytiradi;
- ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni qisqa muddatlarda jalb etib, moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga zamin yaratadi. Innovatsiyalarning jalb etilishi iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirilishiga olib keladi;
- turli bozorlarda raqobatbardosh innovatsion mahsulot ishlab chiqarilishiga va iste'molchi didiga mos innovatsion xizmat turlarini yaratilishiga zamin yaratadi.

Rossiya Milliy reyting agentligi hududlar investitsiya jozibadorligi reytingi quyidagi 7 ta omilga bog'liq deb hisoblaydi:



1. Hududning tabiiy resurslari va uning atrof-geografik xususiyati.
2. Mehnat resurslari.

Hududning infratuzilmasi.

3. Hududning ichki bozori.
4. Ishlab chiqarish salohiyati.
5. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik.
6. Hudud korxonalari va budjetining moliyaviy holati.

O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida investitsiya krediti berish yo‘li bilan investitsiyalarni rag‘batlantirish va investitsiyalarni moliyalashtirish nazarda tutilgan bo‘lsada, soliq qonunchiligida ushbu me‘yor o‘z aksini topmagan. Shu sababli ushbu moliyaviy resursdan foydalanib investitsiyalar hajmini oshirish cheklangan.

Holbuki ushbu amaliyot samaradorligi xorijiy tajribalardan ma‘lum hisoblanadi. Investitsiya resurslarning o‘sib borishi hududlarning ishlab chiqarish imkoniyatini oshishi hamda aholi bandligi masalasining ijobiy yechimiga o‘z ijobiy ta‘sirini o‘tkazadi.

Bu masala ayniqsa o‘tish davri iqtisodiyoti maqomidagi O‘zbekiston Respublikasi uchun strategik ahamiyat kasb etuvchi dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki, tadqiqotlarimiz natijalari shundan dalolat bermoqdaki, 2020 yil ma‘lumotlariga ko‘ra investitsiyalarning hududiy tuzilmasida ular respublikamiz viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha teng taqsimlanmagan. 2018-2022 yillardagi respublika hududlari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar tahlillari natijalar hududlardagi holat turli xil ekanligi kuzatiladi. 2018-2019 yillarda Farg‘ona viloyatida 2018-2020 yillarda esa Buxoro viloyatlarida ushbu ko‘rsatkichning pasayish tendensiyasi kuzatiladi. 2020-yilda koronavirus pandemiyasi sababli cheklovlar o‘rnatilishiga qaramasdan Jizzax (152,5), Samarqand (117,9), Sirdaryo (111,0), Farg‘ona (116,4) va Xorazm (114,5) viloyatlarida o‘shish ta‘minlangan. Lekin yuqori investitsiya salohiyatiga ega hududlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi (80,4), Buxoro (96,7), Qashqadaryo (74,1), Navoiy (78,7), Namangan (87,9), Surxondaryo (76,3), Toshkent (82,8) viloyatlari hamda Toshkent shahri (96,5) da o‘shish sur‘ati pasaygan. Fikrimizcha, 2020 yilda investitsiyalar darajasi o‘shish sur‘ati pasayishining birinchi sababi pandemiya sharoitida ish faoliyatining aholi xavfsizligini ta‘midlash maqsadida cheklanishi hisoblanadi. Ikkinchi sabab esa, pandemiya munosabati bilan budjet xarajatlarini maqbullashtirish chora-tadbirlari belgilanishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 712-717.
2. Abidovna, A. S. (2024). The Importance of Personnel Management in the Operations of an Organization. *Miasto Przyszłości*, 49, 971-975.
3. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch.
4. Рахматов, Ж. А., Алимова, Ш. А., & Бобомуродов, К. Х. (2021). Стратегия инвестиционной политики Республики Узбекистан.
5. Алимова, Ш. А. (2021). ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА КАК НОВЫЙ ЭТАП ГЛОБАЛИЗАЦИИ. АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ, 234-238.
6. Alimova, S. (2024). NEW APPROACHES TO THE EFFECTIVENESS OF INTERACTION BETWEEN PROFESSIONAL EDUCATION AND EMPLOYERS. *Modern Science and Research*, 3(7), 211-218.



7. Abidovna, A. S. (2024). COMMUNICATION PROCESS MANAGEMENT AS A TOOL TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF MODERN ORGANIZATIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 211-217.
8. Bazarova, M. (2024). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. *Modern Science and Research*, 3(6).
9. Bazarova, M. (2024). FEATURES OF BANKING MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Modern Science and Research*, 3(6).
10. Хайитов, Ш. Н., & Базарова, М. С. (2020). Роль иностранных инвестиций в развитии экономики Республики Узбекистан. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 284-287).
11. Базарова, М. С., & Пулатов, Ш. Ш. (2019). Проблемы банковской системы узбекистана и пути их решения. *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации*, 131-133.
12. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 582-586.
13. Базарова, М. С. (2021). ЭКОНОМИКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЕЁ РАЗВИТИИ. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 350-354).
14. Khudoynazarovich, S. A. (2023). CREATING VALUE IN A TOURIST DESTINATION.
15. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KORXONA VA TASHKILOTLARDA PERSONALNI BOSHQARISH TIZIMI VA TAMOYILLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 685-690.
16. Shadiyev, A. (2024). TA'LIM MENEJMENTI. TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
17. Khudoynazarovich, S. A. (2021). An Opportunity of Internet Marketing in Tourism Sphere. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 3(3), 356-361.
18. Shadiyev, A. (2022). EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF SINGAPORE TOURISM IN UZBEKISTAN. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 23(23).
19. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.
20. Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.
21. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Ijtimoiy Soliq Stavkasini Kamaytirish Orqali Davlat Budjeti Daromatlarini Oshirish Imkoniyatlari. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 348-353.
22. Ikromov, E. (2024). SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(2), 103-109.
23. Ikromov, E. (2024). FEATURES AND ADVANTAGES OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(2), 98-102.
24. Khalilov, B. B. (2024). INTERNATIONAL ACCOUNTING ANALYSIS. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 740-745.
25. Халилов, Б. Б., & Курбанов, Ф. Г. (2020). Важность подготовки кадров в экономике. *Вопросы науки и образования*, (6 (90)), 12-14.
26. Khalilov, B. B. (2024). ROLE OF INTERNAL AUDITING IN INTERNATIONAL COMPANIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 413-419.



27. Bakhodirovich, K. B. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF IMPROVING ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *IMRAS*, 6(6), 161-165.
28. Bahodirovich, K. B. (2023). The International Financial Reporting Standards (IFRS) Mean to Businesses and Investors in Uzbekistan. *Miasto Przyszłości*, 42, 746-750.
29. Nafisa, R. (2024). THE PLACE AND ROLE OF TOURISM IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 279-284.
30. Mukhammedrizaevna, T. M., Bakhridinovna, A. N., & Olimovna, R. N. TOURIST LOGISTICS AND SUPPLY CHAIN MANAGEMENT: STRATEGIES FOR REDUCING COST AND IMPROVING SERVICE. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 90.
31. кизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
32. Орипов, М. А., Аминова, Н. Б., & Рахманкулова, Н. О. (2020). Экологически чистое и устойчивое управление цепочками поставок в экономике платформы. *Вестник науки и образования*, (13-2 (91)), 28-30.
33. Bakhridinovna, A. N., & Kizi, R. N. O. (2021). The impact of the digital economy on resource consumption.
34. Nafisa, R. (2024). THE ROLE OF THE MODERN MANAGER IN THE ECONOMY. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 148-154.
35. Raxmonqulova, N. (2023). THE DEVELOPMENT OF CRYPTOCURRENCIES IN THE DIGITAL ECONOMY. *Modern Science and Research*, 2(10), 192-194.
36. Nafisa, R. (2024). Defects in Administration in Economic Development. *International Journal of Formal Education*, 3(9), 17-24.
37. Ruzmetov, B., Jumaeva, Z. K., & Xudayarova, M. (2021). International experience in attracting foreign direct investment. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 3(4), 38-43.
38. ЖУМАЕВА, З. СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЧЕК ПРОИЗВОДСТВЕННОГО РОСТА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. *ЭКОНОМИКА*, 4, 455-458.
39. Жумаева, З. К. (2023). Потенциал инвестиционной стратегии развития региона. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 333-337.
40. Jumayeva, Z. (2024). THE NEED FOR AN INNOVATIVE APPROACH IN MANAGING ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, 3(1), 557-562.
41. Ruzmetov, B., Ruzmetov, S., Bakhtiyarov, S., Dzhumaeva, Z., & Juraev, K. (2023). Formation of supporting points for production growth based on diversification of the regional industry. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 449, p. 01001). EDP Sciences.
42. Jumayeva, Z. Q. (2024). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF COMPREHENSIVE DEVELOPMENT PROGRAMS OF THE REGION BASED ON THE ACTIVATION OF INVESTMENT PROCESSES. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(7), 137-140.
43. Hakimovich, T. M. (2024). IQDISODIY NOCHOR KORXONALARNI MOLIVAVIY SOGLOMLASHTIRISHNING MOLIIYA-KREDIT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.
44. Hakimovich, T. M. (2024). KORPORATIV KORXONALARDA ISH O'RINLARINI YARATISH VA BANDLIKNI TA'MINLASHNING SAMARALI USULLARI.



45. Hakimovich, T. M. (2024). MINTAQUALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHIGA INVESTITSIYA JALB QILISH.
46. Hakimovich, T. M. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT YONDASHUVLARI ASOSIDA XALQ TA'LIMI TIZIMINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.
47. Hakimovich, T. M. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH SOHASI RIVOJLANISHINING IJTIMOYIY-IQTISODIY AHAMIYATI VA TAMOYILLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 341-347.
48. Toshov, M. (2024). IMPROVING PUBLIC EDUCATION SYSTEM MANAGEMENT BASED ON MODERN MANAGEMENT APPROACHES. *Modern Science and Research*, 3(6), 716-722.
49. Toshov, M. (2024). WAYS TO DEVELOP AGROTOURISM AND ITS INFRASTRUCTURE IN POST-PANDEMIC CONDITIONS. *Modern Science and Research*, 3(6), 723-729.
50. Toshov, M. (2024). EFFECTIVE METHODS OF CREATING JOBS AND PROVIDING EMPLOYMENT IN CORPORATE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(6), 710-715.
51. Toshov, M. (2024). ATTRACTING INVESTMENT TO THE DEVELOPMENT OF BUSINESS ACTIVITIES IN THE REGIONS. *Modern Science and Research*, 3(6), 696-702.
52. Sodiqova, N. (2024). THE MAIN STAGES OF THE INNOVATION PROCESS IN THE ENTERPRISE AND ITS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(6), 703-709.
53. Sodiqova, N. (2024). MANAGEMENT OF INNOVATIONS IN ENTERPRISE ACTIVITY OPPORTUNITIES TO USE FOREIGN EXPERIENCE. *Modern Science and Research*, 3(6), 688-695.
54. Sodiqova, N. (2024). THE MAIN METHODS OF SELECTING INNOVATIVE PROJECTS. *Modern Science and Research*, 3(6), 682-687.
55. Turayevna, S. N. (2024). THE ESSENCE AND CONTENT OF THE CONCEPT OF EMPLOYEE MOTIVATION IN BUSINESS MANAGEMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 554-558.
56. Sodiqova, N. (2024). KORXONALARDA INNOVATSION LOYIHALARNI BAHOLASH TARTIBI VA TANLASH USULLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
57. Sodiqova, N. (2024). KORXONADA INNOVATSIYANING MOHIYATI VA UNING ASOSIY TUSHUNCHALARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
58. To'rayevna, S. N. (2024). YANGI IQTISODIYOT VA UNING MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 333-339.
59. Turayevna, S. N. (2024). THE EFFECT OF LABOR PROMOTION ON WORK EFFICIENCY. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 142-147.
60. Bustonovna, D. Z. (2024). CREATIVE THINKING AND ITS APPLICATION IN ECONOMICS.[Data set]. Zenodo.
61. Bostonovna, D. Z. (2023). CONCEPTUAL BASIS OF IMPROVEMENT OF BANK AUDIT IN COMMERCIAL BANKS. *IMRAS*, 6(6), 118-124.
62. Bostonovna, D. Z. (2023). USE OF FOREIGN EXPERIENCE IN IMPROVING THE ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF COMMERCIAL BANKS. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. Finland Academic Research Science Publishers, 11(9), 607-613.
63. Bostonovna, D. Z. (2023). WAYS OF USING REENGINEERING IN ENTERPRISES. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. Finland Academic Research Science Publishers, 11(7), 430-435.
64. Bostonovna, D. Z. (2023). CONCEPTUAL BASIS OF IMPROVEMENT OF BANK AUDIT IN COMMERCIAL BANKS. *IMRAS*, 6(6), 118-124.



65. Jumayeva, Z. (2024). ROLE OF THE STATE IN REGULATING THE ECONOMY. *Modern Science and Research*, 3(1), 511-516.
66. Akbarovna, N. N. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH SOHASINING TASNIFIY BELGILARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 357-364.
67. Akbarovna, N. N. (2024). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CRYPTOCURRENCIES IN THE DIGITAL ECONOMY. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 320-326.
68. Akbarovna, N. N. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO 'RSATKICHLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 326-335.
69. Naimova, N. (2024). STRATEGY OF DIGITALIZATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES OF THE STATE TAX COMMITTEE. *Modern Science and Research*, 3(2), 635-641.
70. Akbarovna, N. N. (2024). KORXONADA MEHNAT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING MOHIYATI VA ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 133-141.
71. Akbarovna, N. N. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTDA MOLIYA VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 446-449.
72. Naimova, N. (2024). DIGITALIZATION IN OUR COUNTRY'S EDUCATION SYSTEM AND APPLICATION IN THE DIGITAL WORLD. *Modern Science and Research*, 3(1), 912-917.
73. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 715-720.
74. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion faoliyatning ahamiyati.
75. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi omillar. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 620-627.
76. Mahmudovna, G. G. (2024). Competitive strategies, the importance of using innovation in their implementation. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali | journal of economy and modern technology*, 3(5), 8-14.
77. Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobat strategiyalari, ularni amalga oshirishda innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyati. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali | journal of economy and modern technology*, 3(5), 15-21.
78. Azimov, B. F., & Rakhimova, D. D. (2022). The role of research and innovations in the modernization of the regional economy. *Conferencea*, 43-47.
79. Азимов, Б. Ф., Рахимова, Д. Д., & Солиев, Д. Н. (2022). Научные основы инновационного подхода к развитию промышленности и сокращению бедности в узбекистане. *Universum: экономика и юриспруденция*, (5 (92)), 14-17.
80. Б.Ф. Азимов, А.Ч. Бобоев, & Ж.Ж. Абдуллаев (2022). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭКСПОРТНЫХ ДРАЙВЕРОВ РЕГИОНА ПУТЕМ АНАЛИЗА ВНЕШНЕТОРГОВОГО ОБОРОТА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. *Ученый XXI века*, (7 (88)), 20-24.
81. Азимов Бобир Фаттоҳевич (2019). Ўзбек миллий урф-одатлари инвестицион ва инновацион трансформациялашга муҳтожми?. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (8), 33-39.
82. Djunaitov, G. N., & Azimov, B. F. (2023). Oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati. *Science and Education*, 4(1), 888–896. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/4919>



83. Азимов, Б. Ф. Экономическая безопасность и ее социально-экономическое значение / Б. Ф. Азимов, Д. Д. Рахимова // Экономическая безопасность социально-экономических систем: вызовы и возможности : Сборник трудов IV Международной научно-практической конференции, Белгород, 28 апреля 2022 года / Под редакцией Е.А. Стрябковой, Н.А. Герасимовой, А.М. Кулик. – Белгород: Общество с ограниченной ответственностью Эпицентр, 2022. – С. 351-354. – EDN PSURWB.
84. Азимов, Б. Ф. Формирование и совершенствование стратегии поддержки инновационной деятельности в регионах Республики Узбекистан / Б. Ф. Азимов // Молодой ученый. – 2022. – № 12(407). – С. 63-65. – EDN VQOYFQ.
85. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(5), 191-196.
86. Yunusovana, U. N., Munira, D., Nigina, M., & Munojot, M. (2021). WAYS OF DEVELOPING DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 527.
87. Rakhimova, L. (2024). THE CONCEPT OF 4P MARKETING. ELEMENTS OF THE MODEL. Modern Science and Research, 3(1), 812-816.

